TIL VA YOZUV: YOZUV TURLARINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Abduxalilova Zebiniso Ikromjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti
Filologiya va tillarni o'qitish arab tili
1-bosqich 102 guruh talabasi
+998979977974
https://doi.org/10.5281/zenodo.24150647

Annotatsiya. Mazkur maqolada til va yozuvning insoniyat jamiyati taraqqiyotidagi o'rni, yozuvning paydo bo'lish tarixi, uning shakllanish va rivojlanish bosqichlari hamda asosiy turlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, piktografik, ideografik, logografik, bo'g'inli va fonografik yozuv tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari, encoding va decoding, ularning o'zaro farqlari va tarixiy taraqqiyotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tilshunos olimlarning yozuv haqidagi ilmiy qarashlari asosida yozuvning insoniyat madaniyati, ilm-fani va ma'naviy merosini avloddan avlodga yetkazishdagi beqiyos ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: til, yozuv, yozuv tarixi, piktografik yozuv, ideografik yozuv, logografik yozuv, bo'g'inli yozuv, fonografik yozuv, alifbo, mixxat, ieroglif, insoniyat madaniyati.

Kirish

Til insoniyatning eng muhim aloqa vositasi, tafakkur va ijtimoiy munosabatlarning asosiy ifodasidir. Insoniyat tarixida tilning paydo bo'lishi kishilar o'rtasidagi muloqot, tajriba almashish va bilimlarni avlodlarga yetkazish imkoniyatlarini kengaytirdi. Biroq og'zaki nutqning imkoniyatlari vaqt va makon bilan chegaralangan edi. Insonlar o'z fikrlari, bilimlari va hayotiy tajribalarini uzoq muddat saqlash hamda kelajak avlodlarga yetkazish ehtiyojini his qila boshladilar. Ana shu ehtiyoj yozuvning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Yozuv insoniyat tamadduni tarixidagi eng buyuk ixtirolardan biri hisoblanadi. U nafaqat axborotni qayd etish vositasi, balki tarixiy xotira, ilmiy tafakkur, madaniyat va ma'naviyatning uzluksizligini ta'minlovchi muhim omildir.

Til va yozuv o'zaro chambarchas bog'liq bo'lsa-da, ular aynan bir tushuncha emas. Til – kishilar o'rtasidagi muloqot va fikrlash vositasi, yozuv esa til birliklarini muayyan grafik belgilar orqali ifodalash tizimidir. Yozuvning kelib chiqishi va dastlabki shakllari Yozuvning kelib chiqishi insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Dastlabki yozuv shakllari kishilarning ovchilik, dehqonchilik, savdo-sotiq, mulkni hisobga olish va diniy marosimlarga oid ehtiyojlari natijasida shakllangan. Yozuv tarixini o'rganishda qadimgi Mesopotamiya, Misr, Xitoy va Markaziy Amerika sivilizatsiyalari alohida o'rin tutadi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, miloddan avvalgi IV ming yillikning oxirlarida Mesopotamiyada dastlabki yozuv tizimlari shakllangan. Qadimgi Shumer yozuvi dastlab rasmli belgilar asosida yuzaga kelib, keyinchalik mixxat shakliga rivojlangan. Qadimgi Misrda esa ieroglif yozuvi keng qo'llanilgan. Yozuvning dastlabki taraqqiyot bosqichlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1. Piktografik yozuv (rasmli yozuv). Piktografik yozuv yozuvning eng qadimgi shakllaridan biri bo'lib, unda muayyan predmet, hodisa yoki voqea rasmlar orqali ifodalangan. Masalan, quyosh rasmi quyoshni, odam rasmi insonni, hayvon tasviri esa muayyan hayvonni anglatgan. Piktografik yozuvning asosiy xususiyati shundaki, belgilar hali tilning tovush yoki grammatik tuzilishini to'liq ifodalamagan. Shu sababli bunday belgilar orqali murakkab fikrlarni aniq va batafsil ifodalash qiyin bo'lgan.

2. Ideografik yozuv (tushunchaviy yozuv). Jamiyat taraqqiyoti bilan rasmlar orqali nafaqat predmetlarni, balki mavhum tushunchalarni ham ifodalash ehtiyoji yuzaga keldi. Natijada ideografik yozuv shakllandi. Ideografik yozuvda belgilar muayyan predmet yoki hodisadan tashqari, fikr va tushunchalarni ham anglatgan. Masalan, quyosh tasviri ayrim tizimlarda yorug'lik yoki kun tushunchasini ifodalashi mumkin bo'lgan. Qadimgi Xitoy yozuv tizimida ideografik va boshqa grafik tamoyillar muhim o'rin egallagan. Vaqt o'tishi bilan belgilar murakkablashib, an'anaviy shakllarini saqlab qolgan holda takomillashgan.

3. Logografik yozuv. Logografik yozuvda har bir grafik belgi tilning muayyan so'zini yoki morfemasini ifodalaydi. Bunday tizimlarda belgilar bevosita tovushlarni emas, balki tilning ma'noli birliklarini aks ettiradi. Xitoy yozuvi logografik xususiyatlarga ega bo'lgan yozuv tizimining mashhur namunasidir. Unda har bir belgi muayyan ma'noli birlik bilan bog'lanadi, ayrim belgilar esa talaffuzga oid ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.

4. Bo'g'inli yozuv. Bo'g'inli yozuvda har bir belgi bir bo'g'inni ifodalaydi. Bunday yozuv tizimlari tilning tovush tuzilishini aks ettirishda muhim bosqich bo'lgan. Yapon tilidagi hiragana va katakana yozuvlari bo'g'inli yozuv tizimlariga misol bo'la oladi. Ular so'z va grammatik shakllarni yozma ravishda ifodalashda faol qo'llaniladi.

5. Fonografik yozuv (tovush yozuvi). Fonografik yozuvda tilning tovush birliklari grafik belgilar orqali ifodalanadi. Bu yozuv turi insoniyat tarixida yozuv tizimlarining takomillashuvida muhim ahamiyat kasb etdi. Fonografik yozuvning asosiy ko'rinishlari quyidagilardan iborat:

Undosh tovushli yozuv (konsonant yozuv) – asosan undosh tovushlarni ifodalaydi. Qadimgi finikiy yozuvi bunga misol bo'la oladi.

Alifbo yozuvi – undosh va unli tovushlarni alohida grafik belgilar bilan ifodalaydi. Yunon alifbosi ushbu tizimning tarixiy rivojida muhim bosqich hisoblanadi. Alifbo yozuvining shakllanishi savodxonlikning keng tarqalishi, ta'lim va ilm-fan rivojlanishiga katta imkoniyat yaratdi. Yozuv taraqqiyotining tarixiy bosqichlari. Yozuvning rivojlanish jarayoni insoniyat sivilizatsiyasi tarixidagi muhim o'zgarishlar bilan bog'liq. Qadimgi Mesopotamiyada mixxat yozuvi xo'jalik hisob-kitoblari, davlat boshqaruvi, qonunlar va adabiy asarlarni qayd etishda qo'llanilgan. Ayniqsa, miloddan avvalgi XVIII asrga oid Hammurapi qonunlari yozuvning davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Qadimgi Misrda ieroglif yozuvi diniy matnlar, tarixiy bitiklar va davlat hujjatlarini yozishda ishlatilgan. Bu yozuv tizimi o'zining murakkab grafik shakllari bilan ajralib turgan. Keyingi davrlarda finikiy yozuvi alifbo tizimining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yunonlar finikiy yozuvini o'z tillariga moslashtirib, unli tovushlarni ifodalovchi harflarni ham yaratdilar. Keyinchalik yunon alifbosi asosida lotin va kirill yozuvlari shakllanishiga tarixiy zamin yaratildi. O'rta asrlarda arab yozuvi keng hududlarga tarqaldi. U ilm-fan, adabiyot, falsafa va diniy bilimlarning rivojlanishida muhim vosita bo'lib xizmat qildi. Markaziy Osiyoda ham arab yozuvi asrlar davomida ilmiy va adabiy merosni yaratish hamda saqlashda qo'llanildi.

Turkiy xalqlar tarixida esa qadimgi turkiy runiy yozuvlar alohida o'rin egallaydi. O'rxun-Enasoy bitiklari turkiy xalqlarning qadimiy yozma yodgorliklari sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bitiklar orqali qadimgi turkiy xalqlarning davlatchiligi, ijtimoiy hayoti, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Olimlarning til va yozuv haqidagi ilmiy qarashlari Til va yozuv masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Ularning ilmiy qarashlari yozuvning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglashga yordam beradi. Mashhur shveysariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur o'zining "Umumiy tilshunoslik kursi" asarida til va yozuv munosabatiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, til va yozuv bir-biriga bog'liq bo'lsa-da, yozuv tilning ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. Sossyur yozuvni til bilan tenglashtirmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Bu qarash yozuvning tilni qayd etish va saqlashdagi vazifasini to'g'ri anglashda muhim ahamiyatga ega. Amerikalik tilshunos Leonard Blumfild "Language" asarida yozuvni tilning grafik ifodasi sifatida o'rganadi. Olim og'zaki tilning tabiiy va birlamchi ekanligini, yozuv esa nutqni qayd etishning maxsus tizimi ekanligini ilmiy asosda izohlaydi. Britaniyalik olim Devid Diringer "The Alphabet: A Key to the History of Mankind" asarida alifboning kelib chiqishi va insoniyat tarixidagi o'rnini keng yoritgan. Uning tadqiqotlarida alifbo yozuvining shakllanishi turli xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar va sivilizatsiyalar taraqqiyoti bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

Amerikalik antropolog va yozuv tarixi tadqiqotchisi Devid Olson "The World on Paper" asarida yozuvning inson tafakkuri va bilimlarni tashkil etish jarayoniga ta'sirini o'rganadi. Uning qarashlariga ko'ra, yozuv insonning fikrlash, tahlil qilish va bilimlarni tizimlashtirish imkoniyatlarini kengaytirgan. Uolter Ong esa "Orality and Literacy" asarida og'zaki va yozma madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi. Olim yozuvning rivojlanishi inson tafakkuri, bilimlarni saqlash va jamiyatning madaniy hayotida chuqur o'zgarishlarga sabab bo'lganini ta'kidlaydi.

Til va yozuvning rivojlanishini o'rganishda encoding (kodlash) va decoding (dekodlash) tushunchalari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu tushunchalar insonlar o'rtasidagi axborot almashinuvi, fikrni ifodalash, yozma xabarni shakllantirish va uning mazmunini anglash jarayonlarini izohlaydi.

Encoding (kodlash) – inson ongida shakllangan fikr, g'oya yoki axborotni muayyan til birliklari va grafik belgilar yordamida ifodalash jarayonidir. Boshqacha aytganda, inson o'z fikrini so'zlar, harflar, tinish belgilari va boshqa yozma vositalar orqali moddiy shaklga keltiradi. Masalan, muallifning muayyan voqea haqidagi fikrini yozma matnga aylantirishi kodlash jarayoniga misol bo'ladi.

Decoding (dekodlash) esa kodlangan axborotni qabul qilish, undagi belgilarni tanish, ularning ma'nosini anglash va muallif tomonidan yetkazilayotgan fikrni tushunish jarayonidir. O'quvchi matnni o'qiyotganda harflarni so'zlarga birlashtiradi, so'zlarning lug'aviy va grammatik ma'nolarini anglaydi hamda umumiy mazmunni shakllantiradi. Bu jarayon dekodlash hisoblanadi.

Encoding va decoding jarayonlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, samarali kommunikatsiyaning asosini tashkil etadi. Yozuvchi o'z fikrini muayyan kod orqali ifodalasa, o'quvchi ushbu kodni anglash orqali xabar mazmunini qabul qiladi. Amerikalik matematik va muhandis Klod Shennon 1948-yilda chop etilgan "A Mathematical Theory of Communication" asarida axborot uzatish jarayonining matematik modelini ishlab chiqqan. Ushbu modelda axborot manbai, xabar, uzatuvchi, aloqa kanali, qabul qiluvchi va axborot manzili kabi tarkibiy qismlar ajratiladi. Shennonning axborot nazariyasi keyinchalik kommunikatsiya jarayonlarini, jumladan, xabarlarni kodlash va dekodlash mexanizmlarini o'rganish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

Shuningdek, Uilbur Shramm kommunikatsiya jarayonida axborotni kodlash va dekodlash ishtirokchilarning bilimlari, tajribasi va umumiy tushunish doirasiga bog'liqligini ta'kidlagan. Uning

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yondashuvi kommunikatsiya samaradorligi faqat xabarni yuborish bilan emas, balki uni qabul qiluvchi tomonidan to'g'ri talqin etilishi bilan ham belgilanadi.

Yozuv tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, encoding va decoding jarayonlari yozuvning eng dastlabki shakllaridayoq mavjud bo'lgan. Masalan, piktografik yozuvda inson muayyan voqea yoki hodisani rasm orqali ifodalagan. Bu kodlash jarayoni bo'lsa, boshqa insonning ushbu rasmni ko'rib, uning ma'nosini tushunishi dekodlash jarayoni hisoblangan. Keyinchalik ideografik, logografik, bo'g'inli va alifbo yozuvlarining rivojlanishi kodlash va dekodlash mexanizmlarini yanada murakkablashtirdi.

Alifbo yozuvida kodlash jarayoni nutq tovushlarini tegishli harflar orqali ifodalash bilan bog'liq bo'lsa, dekodlash jarayonida o'quvchi grafik belgilarni tovushlar va ma'noli til birliklariga aylantiradi. Demak, o'qish va yozish ko'nikmalari ushbu ikki jarayonning o'zaro uyg'unligiga asoslanadi. Zamonaviy raqamli kommunikatsiya sharoitida encoding va decoding tushunchalari yanada keng mazmun kasb etmoqda. Kompyuter va internet tizimlarida matnlar, tasvirlar va boshqa axborot shakllari maxsus kodlar orqali saqlanadi va uzatiladi. Masalan, Unicode standarti turli tillarning harflari va belgilarini yagona kodlash tizimida ifodalash imkonini beradi. UTF-8 esa Unicode belgilarini kodlashning keng qo'llaniladigan usullaridan biridir.
Ta'lim jarayonida ham ushbu tushunchalar muhim o'rin tutadi. Xorijiy tilni o'qitishda encoding o'quvchining o'z fikrini og'zaki yoki yozma shaklda ifodalashini, decoding esa tinglangan yoki o'qilgan axborotni anglashini bildiradi. Shu sababli o'qish, tinglab tushunish, yozish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda kodlash va dekodlash jarayonlarini birgalikda shakllantirish zarur.

O'zbek tilshunosligida ham yozuv, uning tarixi va til taraqqiyotidagi o'rni masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, A. Nurmonovning tilshunoslikka oid tadqiqotlarida til, nutq va yozuv munosabatlari ilmiy jihatdan yoritilgan. N. Mahmudovning til va ma'naviyatga oid qarashlarida esa tilning milliy tafakkur, madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni saqlashdagi o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.
Olimlarning ilmiy qarashlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, yozuv insoniyatning tarixiy xotirasini shakllantiruvchi, ilmiy bilimlarni tizimlashtiruvchi va madaniy merosni avlodlarga yetkazuvchi muhim ijtimoiy hodisadir.

O'zbek xalqi tarixida yozuv tizimlarining taraqqiyoti.

O'zbek xalqi yozuv tarixi ham uzoq va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Markaziy Osiyo hududida qadimdan turli yozuv tizimlari qo'llanilgan. Jumladan, so'g'd, xorazmiy, baqtriy va qadimgi turkiy yozuvlar mintaqaning madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Keyinchalik arab yozuvi keng tarqalib, turkiy adabiyot va ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning ko'plab asarlari yozma madaniyatimizning bebaho namunalaridir. XX asrda o'zbek yozuvi bir necha marta o'zgardi. 1929-yilda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi joriy etildi. 1940-yilda kirill yozuviga o'tildi. 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Keyingi yillarda alifboni takomillashtirish va uning amaliy qo'llanishini kengaytirish bo'yicha ishlar olib borildi. Bugungi kunda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi davlat tili, ta'lim, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari va raqamli kommunikatsiya sohalarida muhim o'rin tutmoqda. Raqamli davrda yozuvning yangi imkoniyatlari XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi yozuvning yangi shakllari va imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Kompyuter, internet, elektron kitoblar, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt vositalari yozma muloqotning ko'lamini kengaytirdi.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Bugungi kunda yozuv faqat qog'ozga tushirilgan belgilar tizimi bo'lib qolmay, balki elektron hujjatlar, raqamli matnlar, gipermatnlar va multimodal axborot shakllarini ham qamrab olmoqda. Shu bilan birga, raqamli muloqotda imlo qoidalariga rioya qilish, adabiy til me'yorlarini saqlash, savodxonlikni oshirish va ona tiliga hurmat bilan munosabatda bo'lish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlodda yozma nutq madaniyatini shakllantirish, to'g'ri va savodli yozish ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridandir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yozuv insoniyat tarixidagi eng muhim madaniy kashfiyotlardan biri bo'lib, uning shakllanishi va taraqqiyoti jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqdir. Piktografik yozuvdan boshlangan tarixiy jarayon ideografik, logografik, bo'g'inli va fonografik yozuv tizimlarining shakllanishiga olib keldi. Alifbo yozuvining rivojlanishi esa ilm-fan, ta'lim va madaniyat taraqqiyotida yangi imkoniyatlar yaratdi.

Yozuv orqali insoniyat o'zining tarixiy xotirasini saqlab, ilmiy kashfiyotlar, adabiy asarlar va ma'naviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazib kelmoqda. Shu sababli til va yozuvni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, madaniyatshunoslik, pedagogika va ma'naviyat sohalari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida yozuv madaniyatini rivojlantirish, milliy tilning imlo me'yorlarini saqlash va yosh avlodning savodxonligini oshirish har bir jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saussure, F. de. (1959). *Course in General Linguistics*. New York: Philosophical Library.
2. Bloomfield, L. (1933). *Language*. New York: Henry Holt and Company.
3. Diringer, D. (1948). *The Alphabet: A Key to the History of Mankind*. London: Hutchinson.
4. Olson, D. R. (1994). *The World on Paper: The Conceptual and Cognitive Implications of Writing and Reading*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Ong, W. J. (1982). *Orality and Literacy: The Technologizing of the Word*. London: Methuen.
6. Coulmas, F. (2003). *Writing Systems: An Introduction to Their Linguistic Analysis*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Gelb, I. J. (1963). *A Study of Writing*. Chicago: University of Chicago Press.
8. Daniels, P. T., & Bright, W. (Eds.). (1996). *The World's Writing Systems*. New York: Oxford University Press.
9. K. Shennon "A Mathematical Theory of Communication", 1948.
10. Nurmonov, A. *O'zbek tilshunosligi tarixi*. Toshkent.
11. Mahmudov, N. *Til va ma'naviyat*. Toshkent.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.